Klaster yondashuvi zamonaviy iqtisodiy rivojlanish nazariyasi va amaliyotida hududlarning raqobatbardoshligini oshirish hamda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan ilg'or tashkiliy model sifatida e'tirof etiladi. Ushbu yondashuvning ustun jihati shundaki, u iqtisodiy o'sishni nafaqat ishlab chiqarish omillari, balki hududiy salohiyat, ijtimoiy resurslar, institutsional muhit va innovatsion integratsiya orqali jadallashtirish imkonini beradi. Klasterlar doirasida o'zaro bog'langan subyektlar — biznes tuzilmalari, xizmat ko'rsatuvchilar, infratuzilma operatorlari, ilmiy-ta'lim muassasalari hamda davlat boshqaruvi organlarining hamkorlikdagi faoliyati kooperatsiya va sinergetik samarani kuchaytiradi. Natijada ishlab chiqarish va xizmatlar zanjirida qo'shilgan qiymat ortadi, tranzaksion xarajatlar qisqaradi, innovatsiyalarni joriy etish tezlashadi hamda bozorga kirish imkoniyatlari kengayadi [1].

Klaster yondashuvi hududiy rivojlanishni rag'batlantirishda ham samarali vosita bo'lib, uning natijalari bandlik ko'rsatkichlarining yaxshilanishi, hududiy iqtisodiy faollikning oshishi, mahalliy byudjet tushumlarining ko'payishi va mahalliy ishlab chiqarish tizimlarining raqobatbardoshligi kuchayishida namoyon bo'ladi. Bunda klasterlar "o'sish nuqtasi" vazifasini bajarib, turdosh tarmoqlarni faollashtiradi, xizmatlar bozorida diversifikatsiyani kuchaytiradi hamda hududiy brend shakllanishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, xizmatlar sektorida, xususan turistik xizmatlar yo'nalishida klasterlashuv infratuzilma, servis sifati, marketing, kadrlar tayyorlash va raqamli yechimlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlashi sababli yuqori multiplikativ ta'sirga ega.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, hududiy rivojlanish dasturlarini kuchaytirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan islohotlar sharoitida turizm xizmatlarini yangi sifat bosqichiga olib chiqish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Turizmning hududiy iqtisodiyotga ta'siri uning bandlik yaratish, kichik biznesni faollashtirish, transport-logistika va savdo xizmatlarini rivojlantirish, madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish hamda hududning investitsion jozibadorligini oshirish imkoniyatlari bilan izohlanadi. Shu ma'noda, turizm sohasida klaster yondashuvini joriy etish xizmatlar zanjirini integratsiyalash, resurslardan kompleks foydalanish va hududiy turistik mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim institutsional asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bois, O'zbekistonning alohida hududlarida mintaqaviy turistik klasterlarni shakllantirish va ularni bosqichma-bosqich rivojlantirish turizmni barqaror rivojlantirish, ichki va kirish turizmi oqimini kengaytirish, hududiy iqtisodiy o'sishni jadallashtirish hamda aholi farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi ustuvor yo'nalish sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur tadqiqotda turistik klaster yondashuvining nazariy-amaliy jihatlarini, uning hududiy iqtisodiyot samaradorligiga ta'sir mexanizmlari hamda klasterlashuv orqali erishiladigan iqtisodiy va ijtimoiy natijalar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda mintaqaviy turistik klasterlar hududiy iqtisodiyot samaradorligini oshirishning muhim institutsional mexanizmi sifatida talqin etiladi. D.D. Fundeanu turistik klasterlarni innovatsion rivojlanish modeli sifatida baholab, ularning hududiy raqobatbardoshlik va investitsion faollikni kuchaytirishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslaydi [2]. Muallif klasterlashuv resurslar konsentratsiyasi va hamkorlikni kuchaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishini ta'kidlaydi.

T. Yalçinkaya va T. Güzel tadqiqotlarida klaster yondashuvi turizm xizmatlari sifatini oshirish, marketing samaradorligini kuchaytirish hamda hududiy brendni shakllantirishda muhim vosita sifatida baholanadi [3]. Ular klasterlar doirasida subyektlar o'rtasidagi tizimli hamkorlik xizmatlar diversifikatsiyasi va innovatsiyalarni joriy etishni tezlashtirishini ko'rsatadi.

O.V. Rijkhova turistik klasterlarni bandlikni oshirish va hududiy iqtisodiy faollikni rag'batlantirishning samarali omili sifatida tahlil qiladi [4]. Uning fikricha, klasterlashuv kichik va o'rta biznes subyektlarining integratsiyasini kuchaytirib, hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. A.I. Mikhaylichenko esa klasterlar doirasida raqobat va kooperatsiya uyg'unligi hududiy barqaror o'sishni ta'minlashini asoslab beradi [5].

Z.S. Abriyev O'zbekiston sharoitida turizm klasterlarini rivojlantirish investitsion jozibadorlikni oshirish, hududiy salohiyatdan samarali foydalanish va mintaqalar o'rtasidagi rivojlanish tafovutlarini muvozanatlashtirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi [6].

Mavjud adabiyotlar mintaqaviy turistik klasterlar hududiy iqtisodiyot, bandlik va investitsion faollikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, klasterlashuvning hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda amaliy joriy etish mexanizmlarini, boshqaruv modellari va institutsional qo'llab-quvvatlash vositalarini yanada chuqur tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mintaqaviy turistik klasterlarning hududiy iqtisodiyot samaradorligiga ta'sirini aniqlash maqsadida umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Xususan, tizimli va institutsional yondashuv, tahlil va sintez, taqqoslama tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning empirik bazasini rasmiy statistika ma'lumotlari, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, hududiy rivojlanish dasturlari hamda tegishli ilmiy manbalar tashkil etdi. Olingan natijalar klaster yondashuvining iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional samaradorligini kompleks baholash asosida umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqaviy turistik klasterlarni shakllantirish va ularning samarali faoliyat ko'rsatishi ichki hamda kirish turizmi oqimlarini ko'paytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish uchun qulay sharoitlar yaratadi. Turistik klasterlarni tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad — hududning turistik xizmatlar bozorida raqobatbardoshligini oshirish va sinergetik samaraga erishishdir. Bu esa, o'z navbatida, klaster tarkibiga kiruvchi korxonalar faoliyati samaradorligini yuksaltirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish hamda yangi turistik yo'nalishlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Mintaqaviy turistik klasterlarni tashkil etish amaliy jihatdan hududning iqtisodiy pozitsiyasini mustahkamlash, shuningdek, uning investitsiyaviy va imij salohiyatini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Turistik xizmatlar sohasidagi klaster modellari hududdagi to'rtta asosiy texnologik guruh ishtirokchilarining hamkorligiga asoslanadi va ular quyidagicha shakllanadi:

- innovatsion ilmiy laboratoriyalar va tajriba-sinov ishlab chiqarish markazlari — turistik mahsulot yaratish jarayonida qo'llaniladigan yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga ixtisoslashgan subyektlar.

- joriy etish markazlari — turistik xizmatlar sohasida mahalliy darajada faoliyat yurituvchi muvofiqlashtiruvchi kengashlar orqali samarali boshqaruvni ta'minlovchi tuzilmalar.

- ishlab chiqarish-texnologik guruhlar — turistik mahsulotning yangi tarkibiy qismlarini yaratish uchun zarur uskunalarni ishlab chiqarish imkoniyatiga ega subyektlar.

- marketing guruhlar — yaratilgan turistik mahsulotlarni bozorda ilgari surish, ustuvor yo'nalishlar bo'yicha talabni shakllantirish hamda hududning turistik salohiyatini keng targ'ib qilish bilan shug'ullanuvchi tuzilmalar.

Klaster shaklidagi mazkur tizim o'zaro hamkorlik va innovatsion integratsiya asosida hududlarning iqtisodiy o'sishini jadallashtiradi hamda turistik salohiyatdan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Shu bois, klaster yondashuvi turistik xizmatlar sohasini rivojlantirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Klaster asosida tashkil etilgan turistik iqtisodiy sektorning ustun jihatlaridan biri — davlat boshqaruvi organlari va xususiy biznes o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish imkoniyatidir. Bunday yondashuv mahalliy hokimiyat organlariga turistik xizmatlar sohasining holatini baholashda aniq ko'rsatkichlardan foydalanish va rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi. Natijada hududiy resurslardan maqsadli va asosli foydalanishga yo'naltirilgan strategik rejalashtirish amalga oshiriladi.

Hududiy turistik klasterlarni shakllantirish va uni bosqichma-bosqich rivojlantirish mintaqaviy turistik biznesning barqaror rivojlanish strategiyasida muhim o'rin tutadi. Klasterlar biznes subyektlari uchun uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan mexanizm sifatida qaraladi. Bu esa kompaniyalarga 5–10 yil va undan ortiq muddatga mo'ljallangan rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Muvaffaqiyatning asosiy omillari sifatida biznes yetakchilarining faol pozitsiyasi hamda hududdagi turli tashkiliy guruhlar manfaatlarining konstruktiv muvofiqlashuvi e'tirof etiladi. Shunday qilib, klaster modelining samaradorligi sivilizatsiyalashgan raqobat muhiti, yetakchilarning tashabbuskorligi va mahalliy hokimiyatning qo'llab-quvvatlovi bilan chambarchas bog'liqdir.

Klaster tizimi asosida hududni iqtisodiy rivojlantirish biznesning faol ishtiroki hamda davlat boshqaruvi organlari bilan samarali hamkorlikni nazarda tutadi. Biznes va davlat tuzilmalarining turistik klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishdagi vazifalari turlicha bo'lsa-da, ular o'zaro to'ldiruvchi xususiyatga ega. Klasterlarni rivojlantirishning muhim vositalaridan biri — mahalliy va milliy darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy dasturlardir.

Hududiy tarmoqli klasterlarni baholashda uning ishtirokchilari va iqtisodiy makondagi boshqa subyektlar uchun yaratiladigan afzalliklarni chuqur tahlil qilish zarur. Fikrimizcha, klaster tashkil etilishidan olinadigan ijobiy natijalarni ichki va tashqi ta'sirlar sifatida guruhlash maqsadga muvofiqdir (1-jadval).



1-jadval. Mintaqaviy turistik klasterlarni shakllantirish natijasida yuzaga keladigan ta'sirlar [7]

Ta'sir turi	Klasterning ichki ta'siri (klaster ichidagi namoyon bo'lishi)	Hudud miqyosidagi tashqi ta'siri (hududdagi namoyon bo'lishi)
Tranzaksion xarajatlarni kamaytirish samarasi	Klaster ishtirokchilari o'rtasidagi doimiy hamkorlik bitimlar xavfsizligini oshiradi	Klasterlashtirish davlat organlariga tranzaksion xarajatlarni kamaytirish vositasini taqdim etadi
Ishlab chiqarish miqyosi samarasi	Klasterdagi ixtisoslashuv bloklarining rivojlanishi orqali boshqa ishtirokchilar faoliyati kengayadi, bu esa klaster qamrov hududini kengaytiradi	Klaster qamrov hududining kengayishi yangi bozorlarga chiqishni ta'minlaydi, bu esa hudud iqtisodiyotining boshqa tarmoqlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi
Qamrov samarasi	Klaster ishtirokchilari kooperatsiyasi ko'p funksiyali resurslardan turli korxonalarda foydalanish imkonini beradi, bu esa uni o'tkazish bilan bog'liq tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi	Ko'p funksiyali resurslardan samarali foydalanish orqali davlat byudjeti mablag'larini tejash imkoni yaratiladi
<i>"Antitigger" samarasi¹</i>	Ishtirokchilar tomonidan <i>innovatsiyalarga birgalikda mablag' ajratish imkoni yuzaga keladi</i>	Mahalliy hokimiyat klaster faoliyatini muvofiqlashtirib, moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni nazorat qiladi, bu esa kutilgan ijobiy natijalarni barqaror ta'minlashga xizmat qiladi
Ekologik javobgarlik samarasi	Ekologik himoya bo'yicha yangi texnologiyalarni joriy etish orqali klasterning tabiatga salbiy ta'siri kamayadi	Ekologik ta'sirni kamaytirish aholi salomatligining yaxshilanishiga va davlat byudjeti hisobidan ekologiya dasturlariga sarf-harajatlarning kamayishiga olib keladi
Sinergetik samara	Klaster ishtirokchilari o'rtasidagi integratsiya natijasida faoliyat samaradorligi oshadi	Turistik klasterlarni tashkil etish orqali hududni rivojlantirish samaradorligi oshadi

Ichki ta'sirlar asosan klaster ishtirokchilari o'rtasidagi sinergetik (o'zaro to'ldiruvchi va kuchaytiruvchi) munosabatlar bilan bog'liq bo'lib, ular quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

1. Klaster ishtirokchilari o'rtasidagi kooperatsiya orqali umumiy resurslar, tajriba va infratuzilmadan samarali foydalanish imkoniyati yaratiladi.

2. Katta va kichik biznes subyektlari o'rtasidagi hamkorlik asosida shakllangan klaster tuzilmasi mahsulotni modernizatsiya qilish xarajatlarni optimallashtirishga xizmat qiladi, chunki ayrim ishlab chiqarish vazifalari kichik biznes subyektlariga outsorsing asosida topshiriladi.

3. Ishlab chiqarishni xomashyo, materiallar va butlovchi qismlar bilan ta'minlash jarayonida uzoq muddatli va barqaror hamkorlik aloqalari shakllanadi.

4. Boshqaruv jarayonlari takomillashib, tizim ierarxiyasining soddalashuvi qaror qabul qilish samaradorligini oshiradi.

5. Klaster ishtirokchilari o'rtasidagi investitsiyaviy va moliyaviy hamkorlik mustahkamlanib, barqaror moliyaviy aloqalar rivojlanadi.


Mazkur omillar klaster modelining iqtisodiy va tashkiliy samaradorligini tasdiqlab, hududiy turistik klasterlarni joriy etish hamda rivojlantirishning strategik ahamiyatini asoslaydi.

Mintaqaviy turistik klasterlar – bu, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim doirasida turli aktorlar (steykholderlar) o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va manfaatlar uyg'unligiga asoslangan innovatsion tashkiliy shakl hisoblanadi. U nafaqat to'g'ridan-to'g'ri ishtirokchilar (ya'ni tadbirkorlik subyektlari, mahalliy aholi va davlat boshqaruv organlari) uchun, balki bilvosita benefitsiarlar — infratuzilma sektori, ekologik muhit va institutsional tizimlar uchun ham keng ko'lamli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Klaster doirasida turizm sohasining rivojlanishi mahalliy aholini ish bilan ta'minlash, xususiy sektor faolligini oshirish, soliq bazasini kengaytirish, infratuzilmaviy obyektlarni modernizatsiya qilish hamda ekologik barqarorlikni mustahkamlash imkonini beradi. Shu bois, turistik klasterlar turizmni inklyuziv va barqaror rivojlantirishning muhim strategik mexanizmlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Hududiy turistik klaster xususiy sektor, yirik korxonalar, davlat boshqaruv tuzilmalari hamda ilmiy-ta'lim muassasalari o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlovchi innovatsion tashkiliy platforma vazifasini bajaradi.

¹ Antitigger samarasi – bu klaster tizimlaridagi disfunktsion ishlash, ya'ni, klaster ishtirokchilari o'rtasidagi samarasiz hamkorlik, nizoli munosabatlar, maqsadlarning mos kelmasligi va innovatsion inersiya tufayli uning asosiy maqsadlariga (masalan, innovatsiya, sinergiya, iqtisodiy o'sish) erisha olmaslik holati, noto'g'ri muvofiqlashtirish va samarasiz aloqalar natijasida yuzaga keladigan institutsional yoki iqtisodiy salbiy ta'sirdir. Turistik klasterda bu holatni oldini olish uchun strategik boshqaruv, qonunchilik asoslari, to'g'ri infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik ishtirokini ta'minlash zarur.

Klaster texnologiyalarini joriy etish jarayonida turli manfaatdor guruhlarning pozitsiyasi va hududiy rivojlanish strategiyasi doirasidagi ustuvor yo'nalishlar kompleks tarzda inobatga olinishi zarur (1-rasm).



1-rasm. Mintaqaviy turistik klasterni shakllantirishining afzalliklari ²

Bunday klasterning asosiy afzalliklari qatoriga resurslardan samarali foydalanish, zamonaviy texnologiyalarga kengroq kirish imkoniyati, soliq to'lovchilar soni va soliq bazasining kengayishi, shuningdek, davlat va biznes o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining rivojlanishi kiradi. Ushbu natijalarga resurslarni oqilona qayta taqsimlash, barqaror hududiy o'sishni ta'minlash hamda multiplikativ ta'sir mexanizmlaridan samarali foydalanish orqali erishiladi.

Davlat uchun klasterlar, bir tomondan, hudud iqtisodiyotini rivojlantiruvchi vosita, ikkinchi tomondan esa iqtisodiy o'sish nuqtasi sifatida qaraladi. Bunda klasterlarning investitsion loyiha sifatidagi samaradorligi byudjet, iqtisodiy va ijtimoiy mezonlar asosida baholanadi. Byudjet samaradorligi soliq tushumlarining ortishi bilan; iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish hajmi va foydaning o'sishi bilan; ijtimoiy samaradorlik esa yangi ish o'rinlari yaratilishi, aholi daromadlarining oshishi hamda ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi orqali namoyon bo'ladi.

Hududiy turistik klasterlarni shakllantirish hududning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratuvchi strategik mexanizm sifatida xizmat qiladi. Bunda yalpi hududiy mahsulot (YaHM)ning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori hamda iqtisodiyotning umumiy samaradorligi klaster faoliyatining natijaviy ko'rsatkichlari sifatida qaraladi. Samaradorlik moliyaviy, tabiiy va inson resurslaridan maqsadli hamda oqilona foydalanish orqali yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyati sifatida baholanadi.

Klaster davlat siyosatida "o'sish nuqtasi" sifatida e'tirof etilganda, uning ta'siri bir nechta yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. Funktsional ta'sirlar: ishlab chiqarish va daromad hajmining ko'payishi; iqtisodiy faollik va takror ishlab chiqarish jarayonining jadallashuvi; innovatsion faollik va texnologik yangilanishning kuchayishi; yangi ish

² Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



o'rinlarining yaratilishi va aholi farovonligining oshishi; jamoaviy hamkorlik hamda kooperatsiya aloqalarining rivojlanishi.

2. Tuzilmaviy o'zgarishlar: ilg'or innovatsiyalar va "o'sish nuqtalari"ning shakllanishi; ilmiy va ta'lim sohalariga yo'naltirilayotgan xarajatlar ulushining oshishi; innovatsion infratuzilma tarmoqlarining hududiy kengayishi.

3. Institutsional islohotlar: huquqiy va boshqaruv muhitining takomillashuvi; xo'jalik subyektlari o'rtasidagi munosabatlarning shaffofligi va samaradorligi; hududda zamonaviy ishbilarmonlik madaniyatining shakllanishi.

4. Dinamik natijalar: aniq tarmoq va ishlab chiqarish majmualarining tezkor rivojlanishi; ilmiy va innovatsion salohiyatning o'sishini jadallashtirish.

Shu bilan birga, turistik klasterlarni shakllantirish qisqa muddatda klaster ishtirokchilari tomonidan davlat byudjetiga tushumlarni oshirish, ijtimoiy samaradorlikni ta'minlash (yangi ish o'rinlari, daromadlar, infratuzilma rivoji) hamda innovatsion islohotlar uchun amaliy platforma yaratishni ko'zda tutadi. Uzoq muddatli istiqbolda esa klaster joylashgan hududning raqobatbardosh salohiyatini oshirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash hamda uni milliy va xalqaro iqtisodiy makonda faol va samarali ishtirokchiga aylantirish asosiy maqsad sifatida qaraladi.

Klaster yondashuvi hududiy rivojlanishning tizimli modelini shakllantiradi. U ko'p darajali ta'sir mexanizmlari orqali hududda innovatsiya, investitsiya va integratsiya jarayonlarini uyg'unlashtirib, davlat uchun strategik istiqbolga ega iqtisodiy o'sish ustuni sifatida namoyon bo'ladi. Bunday yondashuvni samarali baholash uchun kompleks tahlil vositalari hamda ta'sir darajasini chuqur o'lchash imkonini beruvchi uslubiy yondashuvlar zarur. Klaster siyosatini rivojlantirishda aynan shu usullar iqtisodiy samaradorlikni aniqlashning muhim mezon sifatida qo'llaniladi.

Mintaqaviy turistik klasterlar hududdagi barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu, eng avvalo, klasterlar tomonidan davlat boshqaruv organlari, xususiy biznes, ilmiy-ta'lim muassasalari va jamoatchilik tashkilotlari bilan samarali hamkorlik alyanslarining shakllantirilishi orqali amalga oshadi. Bunday hamkorlik shakllari nafaqat klaster ishtirokchilari, balki klaster doirasidan tashqaridagi xo'jalik subyektlari uchun ham ishlab chiqarish va innovatsion rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Biznes sohasida turistik klaster faoliyatining ijobiy ta'sirlari:

- klaster doirasida yagona talab va standartlarni joriy etish orqali bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytirish;

- xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini samarali tashkil etish;

- asbob-uskunalar, jihozlar va axborot texnologiyalarini birgalikda xarid qilish orqali xarajatlarni optimallashtirish;

- mijozlar va buyurtmachilarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish;

- klasterning ijobiy imiji va brendining ishtirokchi subyektlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi;

- davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali mavjud kasbiy ta'lim tizimini klaster ehtiyojlariga moslashtirish;

- innovatsion va hududiy dasturlarga klaster manfaatlarini integratsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirish va h.k.

Klasterning iqtisodiy va tashkiliy samaralari:

Turistik klaster faoliyati natijasida yuzaga keladigan asosiy iqtisodiy samaralar – bu klasterning ishtirokchi subyektlari o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik va o'zaro kooperatsiya orqali shakllanadigan sinergetik ta'sirdir (2-jadval).

2-jadval. Ishtirokchilar kesimida klaster samaralari [7]

Manfaatdor tomonlar	Klaster faoliyatidan kutiladigan asosiy samaralar
Klaster ishtirokchilari (biznes)	Resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni kamaytirish, yangi bozorlarga kirish, mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish
Turistik xizmatlar sohasidagi boshqa subyektlar	Klaster infratuzilmasidan foydalanish, innovatsion g'oyalar, hamkorlik va raqobatning yangi formatlari
Turdosh tarmoqlar (logistika, transport)	Turistik xizmatlar orqali doimiy ehtiyojga ega bo'lish, ta'minot zanjirlari orqali o'sish
Turistlar (iste'molchilar)	Xizmatlar sifatining oshishi, xilma-xillik va raqobatli narxlar
Hududiy davlat organlari	Soliq tushumlarining o'sishi, iqtisodiy faollik va infratuzilma taraqqiyoti, tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi

Bunda klaster faoliyatida raqobat va hamkorlikning uyg'un holda yuritilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Klaster ta'siri turlari:

1. Aglomeratsiya samarasi – geografik yaqinlik asosida ishlab chiqarish miqyosining kengayishi, transport va logistika xarajatlarining qisqarishi, bilim va texnologiyalar almashinuvining yengillashishi, noyob resurslardan foydalanish imkoniyatining yaxshilanishi. Bunda klaster markazidan uzoq hududlarda joylashgan subyektlarning mazkur afzalliklardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarurati yuzaga keladi.

2. Sohalararo ta'lim samarasi – ishtirokchi subyektlar o'rtasida bilim, tajriba va innovatsiyalar almashinuvining uzluksiz jarayonga aylanishi. Bu esa ta'limni biznes rivojlanishining samarali paradigmasiga aylantiradi.

3. Kooperatsiya samarasi – subyektlar o'rtasida resurslar va xizmatlar bo'yicha samarali hamkorlikni ta'minlaydi.

4. Innovatsion samara – yangi g'oyalar va texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari kengayadi.

Klaster faoliyatining tashqi subyektlarga ta'siri:

- infratuzilma obyektlaridan birgalikda foydalanish imkoniyatlarining kengayishi;
- bilim va innovatsiyalar oqimining faollashuvi;
- hududiy talabning rag'batlantirilishi;
- yangi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarining kengayishi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaralar:

- yangi ish o'rinlarining yaratilishi va barqaror bandlikning ta'minlanishi;
- kasbiy ta'lim standartlarining zamonaviy talablarga moslashuvi;
- fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi;
- turmush darajasi, iste'mol madaniyati va ijtimoiy xizmatlar sifatining yaxshilanishi;
- sud-huquq, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlarining zamonaviy talablar asosida takomillashuvi.

Turistik klasterlar hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda strategik nuqta, ya'ni "o'sish ustuni" sifatida xizmat qiladi. Ular resurslardan samarali foydalanish, innovatsiyalarni keng joriy etish, turdosh va o'zaro bog'liq tarmoqlarni faollashtirish orqali umumiy hududiy o'sish muhitini shakllantiradi. Shu bilan birga, klaster siyosati davlat, biznes va aholi manfaatlarini uyg'unlashtiruvchi zamonaviy innovatsion boshqaruv modeli sifatida namoyon bo'ladi.

Hududiy turistik klasterlar davlat, biznes va aholi manfaatlarini uyg'unlashtirish, strategik rivojlanishning imkoniyat bo'shliqlarini aniqlash, ustuvor yo'nalishlar va samarali siyosat yuritish uchun muhim platforma hisoblanadi. Bu jarayonni samarali boshqarish uchun esa maqsadga muvofiq tahlil vositalari va klaster samaradorligini baholashning ilmiy asoslangan metodologiyasi talab etiladi. Shunday qilib, klasterlar hududiy iqtisodiyotda innovatsion o'sishni ta'minlovchi muhim drayver vazifasini bajaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari mintaqaviy turistik klasterlar hududiy iqtisodiyot samaradorligini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish hamda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim strategik mexanizm ekanini ko'rsatdi. Klaster yondashuvi turizm sohasida resurslardan kompleks va samarali foydalanish, xizmatlar sifatini oshirish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish hamda bandlikni kengaytirishga xizmat qiladi. Davlat, biznes va jamiyat manfaatlarining uyg'unlashuvi asosida shakllangan turistik klasterlar sinergetik samarani yuzaga keltirib, hududiy iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi.

Shu bilan birga, turistik klasterlarning rivojlanish jarayonida infratuzilmani yanada takomillashtirish, boshqaruv mexanizmlarini samaradorligini oshirish va institutsional muhitni mustahkamlash zarurati mavjud. Mazkur yo'nalishlarni izchil rivojlantirish maqsadida hududiy darajada klasterlarni boshqarish tizimini takomillashtirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish hamda investitsiyalarni rag'batlantiruvchi moliyaviy va institutsional sharoitlarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, turistik xizmatlar diversifikatsiyasini rivojlantirish, hududiy branding va marketing strategiyalarini takomillashtirish mintaqaviy turistik klasterlarning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni. 11.09.2023-y. – <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Fundeanu, D.D. Innovative Regional Cluster, Model of Tourism Development. – Procedia Economics and Finance. – <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2212567115005018>
3. Yalçinkaya, T., Güzel, T. A General Overview of Tourism Clusters. – https://www.researchgate.net/publication/330122281_A_General_Overview_of_Tourism_Clusters
4. Rijkhova, O.V. Кластеры в формировании региональной экономики: развитие туризма в Тульской области. – <https://cyberleninka.ru/article/n/klastery-v-formirovanii-regionalnoy-ekonomiki-razvitiye-turizm-v-tul'skoy-oblasti>



5. Mikhaylichenko, A.I. Touristic Clusters as a Form of Social Dialogue and Regional Development. – <https://core.ac.uk/download/pdf/233942695.pdf>
6. Abriyev, Z.S. Prospects for the Development of Tourism Clusters in Uzbekistan. – <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/7229>
7. Ollanazarov, B.D. Mintaqaviy turistik klasterlar asosida qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari. Monografiya. – Xorazm: Khwarezm Publication, 2025. – 308 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100